

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

4

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



ISSN 2181 – 8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abduhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
I. Xaydarov	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Karimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, G. Hushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Azizxonova S.</i> Azimiy hikmatlarining badiiy va ma'rifiy xususiyatlari	5
<i>Абдуганиева Н.</i> Сказки индонезии и их формульность	13
<i>Qalandarov M., Xushnazarova G.</i> Kamoliddin Husayn voiz Koshifiyning “Lub ul-bob-masnaviy” va Odina Eshon “miftoh ul-asror” asarlari tahlili.....	24
<i>Karimov N.</i> Li Munyol ijodida qaqnus qushi obrazi	33

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Begmatova B., Qurbonov S.</i> Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi	45
<i>Mirziyatov Sh.</i> “Muqaddamatu-l-adab” asari jahon Zamaxshariyshunoslari nigohida.....	56
<i>Abduvaliyeva Oʻ.</i> Afgʻoniston va Pokiston tilshunoslarining qoʻshma soʻzlar va kopulyativ qoʻshma soʻzlarga oid tadqiqotlari tahlili.....	64
<i>Axmedova C.</i> Семантическая классификация слова «любовь» в арабском языке	72
<i>Rasulova K.</i> Oybekning “Navoiy” romanidagi portret tavsiflarining tarjimalarda berilishi	82
<i>Jumaniyazov M.</i> Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e-rāb” asarida keltirilgan sheʼriy baytlar va maqollar	93
<i>Saidov U.</i> Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar ..	108
<i>Saydumarova M.</i> “Oʻtkan kunlar” romanidagi nutqiy etiket birliklarining arab va ingliz tillariga tarjima qilish xususiyatlari haqida	121
<i>Abdullayeva N.</i> Dunyo tilshunosligida oʻzlashgan soʻzlar masalasi. Ularni oʻzlashtirish qoida va tamoyillari	134

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Faromarzi F.</i> Hofiz i Abru “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan qoʻlyozmasi haqida.....	144
<i>Dr. Korayem S.</i> Literary heritage of Ali-shir Nava'i: (A study on his influence and contribution to world civilization)	157
<i>Jumayev Gʻ.</i> Temuriylar davri manbalaridan “Osor al-vuzaro” asarining oʻrganilishi	171



SHARTLI QISQARTMALAR

[Na] – Oybek, Navoiy, roman, / “Asr oshgan asarlar” turkumi// Tahrir hay’ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: “Sharq”, 2004, – 496 b.

[Ne1] – Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995.

[Ne2] – Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. –İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.

[H1] – Айбек. Навои. Роман. Перевод с узбекского М. А. Салье, стихи в переводе В.А.Липко. Худож. А.Гуламов. –Ташкент: Ёш гвардия, 1984. –376 с.

[H2] – Айбек. Навои. Роман. Перевод с узбекского под ред. П.Слетова. –Л.: Советский писатель. 1946. – 376 с.

MANSUR JUMANIYAZOV

Tayanch doktorant, TDSHU
0009-0009-0267-6462

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida keltirilgan she’riy baytlar va maqollar

Anotatsiya. Arab tili grammatikasida mashhur asarlardan hisoblangan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asari o’zgacha uslubda yozilgan bo’lib, ta’rif va qoidalarini dalillashda avval murakkab bo’lmagan ot kesimli yoki fe’l kesimli gaplardan foydalangan. Qoidalarining ma’lum qismi oydinlashgandan keyin Qur’oni karim oyatlari misol sifatida keltirila boshlagan. Mavzuning boshqa murakkab yoki nozik taraflarini yoritishda she’riy baytlar va arab maqollaridan foydalangan. Olim she’riy baytlarni ko’pincha tilshunoslar orasida bahsli bo’lgan qoidalarini tushuntirishda keltirgan. Asarda umumiy uchta qismda 143 ta o’rinda arab mumtoz she’rlaridan va arab maqollaridan foydalangan.

Olim mavzularni yoritishda arab maqollaridan kam foydalangan bo’lsa ham, eng dolzarb va muhim bo’lgan o’rinlarda yuksak mahorat bilan qo’llagan. Maqolaning “Ism bobi”da ega va kesimning turli xil holatlarda tushib qolishi va moslashmagan aniqlovchilarning kelishiklari va oddiy datajadagi sifatlar va orttirma darajadagi sifatlar hattoki ko’rsatish olmoshlarining xususiyatlarini ochib berishda she’riy baytlardan foydalangan. “Fe’l bobi”da yordamchi fe’llar va gumonni ifoda qiluvchi fe’llarning gapda otlarni tushim kelishigida boshqarishiga doir masalalarni yoritishda she’riy baytlar o’z o’rnida qo’llanilgan. “Old ko’makchilar” qismida, asosan, ko’makchilarning qaysi ma’noda kelishi she’riy baytlar asosida ochib berilgan. Maqollarga kelsak, ular murakkab gaplar mavzusida ko’proq qo’llanilganligini ko’rish mumkin. Umuman olganda, olim boshqa tilshunoslardan farqli ravishda barcha mavzularda she’riy baytlardan foydalangan.

Kalit so’zlar. she’riy baytlar, maqollar, ega va kesim, moslashmagan aniqlovchi, sifatning oddiy va orttirma darajasi, izohlovchi, yordamchi fe’llar, old ko’makchilar.



Аннотация. Произведение Зиявудина Макки Хорезми “Кифаяту-н-нахв фи илми-л-Эраб”, считающееся одним из самых известных произведений по грамматике арабского языка, было написано в особом стиле и в доказательстве определений и правил использовало ранее несложные предложения со сказуемыми, выраженными именами существительными или глаголами. После разъяснения определенной части правил в качестве примеров стали приводить аяты Корана. Чтобы осветить другие сложные или тонкие аспекты темы он использовал поэтические строфы и арабские пословицы. В объяснении правил, которые вызывают споры среди лингвистов ученый часто цитировал поэтические стихи. В произведении всего в 143 местах в трех частях использованы арабские классические стихи и арабские пословицы.

Ученый, хотя и редко, использовал арабские пословицы в освещении наиболее актуальных и важных тем. В статье «Глава о существительном» рассматриваются надежи притяжательных прилагательных, причастий и склонение несогласованных определений, а также прилагательных простой сравнительной и превосходной степеней, для раскрытия свойств указательных местоимений использовал даже поэтические строфы. В «Главе о глаголах» поэтические строфы использовались для того, чтобы осветить вопросы о том, как вспомогательные глаголы и глаголы, выражающие сомнения, управляют существительными в винительном надеже. В разделе «Предлоги» на основе стихотворных строк раскрывается смысловое употребление предлогов. Что касается пословиц, то можно увидеть, что они чаще используются в теме о сложных предложениях. Кроме того, в теме предлогов и в освещении сложных свойств вспомогательных глаголов, пословицы были умело использованы в последовательности. Вообще ученый, в отличие от других лингвистов, использовал поэтические строфы на все темы.

Ключевые слова. Стихотворные строфы, пословицы, притяжательное прилагательное, причастие, несогласованное определение, сравнительная и превосходная степень прилагательного, пояснительные, вспомогательные глаголы, предлоги.

Annotation. The work “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” by Ziyaviddin Makki Khorazmi, which is considered one of the famous works in Arabic language grammar, is written in a special style. He used participle sentences. After a certain part of the rules was clarified, the verses of the Holy Qur'an began to be cited as examples. He used poetic verses and Arabic proverbs to illuminate other complex or delicate aspects of the subject. The scholar used poetic verses to explain rules that are often disputed among linguists. In the work, he used classic Arabic poems and Arabic proverbs in 143 places in three parts.

Even though the scientist rarely used Arabic proverbs in explaining topics, he used them with great skill in the most interesting and important places. In the article “Chapter of Nouns”, he used poetic stanzas to reveal the features of possessive and participles in different cases and the agreement of non-matching determiners and adjectives in simple data and adjectives and even demonstrative pronouns. In the “Chapter of Verbs”, poetic stanzas are used instead of auxiliary verbs and verbs expressing suspicion to cover the issues related to controlling nouns in the sentence. In the “Prepositions” section, the meaning of assistants is mainly revealed on the basis of poetic verses. As for proverbs, it can be seen that they are used more in complex sentences. In general, unlike other linguists, the scientist used poetic verses on all topics.



Key words: poetic stanzas, proverbs, possessive and participle, non-adaptive determiner, common and superlative degree of comparison in adjectives, explanatory, auxiliary verbs, prepositions.

VIII–IX asrlarda klassik adabiy arab tili to‘la shakllanib bo‘ldi. Bu davrga kelib Qur‘oni karim, qadimiy nazm va quraysh lahjasi ta‘sirida arab yozuvi, sarf va nahvi shakllandi. Qur‘oni karimning nozil bo‘lishi va kitobat qilinishi bilan klassik arab tili badiiyati yanada go‘zallashdi va grammatik me‘yorlar mukammallashdi. Qur‘oni karim islomning asosiy matni birinchi arab kitobi bo‘lganligidan arab tilining rivojida asosiy qoidalarini dalillashda eng ishonchli manba sifatida asos bo‘ldi. Qur‘on va hadislardagi noyob va g‘ayrioddiy iboralarni tushunish va undagi grammatik tuzilmalarga oydinlik kiritish uchun arab she‘riyatiga ehtiyoj sezildi. Natijada arab she‘riyati Qur‘on bilan hamnafas holda rivojlana boshladi. Arab tilida so‘zlashadigan she‘riyat eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Arab tili rivojlanishi asnosida ko‘plab grammatik asarlar yaratila boshlandi. Nahvshunoslar o‘z kitoblarida grammatik masalalarni dalillashda Qur‘oni karim va hadisi shariflardan olingan misollarni tahlilga tortgan. Chunki Qur‘oni karim va hadisi shariflardagi jumalarning tuzilishi va ulardagi iboralarning ishlatilishi va so‘zlarning ma‘nosi asos qilib olinib, shu qoidalar asosida arab tili grammatikasi ishlab chiqilgan. Bularidan farqli ravishda O‘rta Osiyo olimlari, shu jumladan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» asarida oyat va hadislardan tashqari arab she‘riyat namunalarini ko‘proq tahlilga tortgan. Bu xuddi Mahmud Kashqariyning turkiy til grammatikasini yozganda turkiy xalqlarning folklorlaridan keng foydalanganiga juda o‘xshash. Shu yo‘l bilan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy manbaning tilshunoslik hamda adabiy nuqtayi nazardan keng qamrovligini ta‘minlagan.

Biz asarda arab mumtoz she‘riyatining grammatik qoidalarini dalillashda yoki inkor qilishda qo‘llanilishini o‘rganish orqali grammatik qoidalarini tushunish bilan birga klassik arab adabiyoti she‘riyatini o‘rganishga muvaffaq bo‘lamiz.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» asarida 250 ta o‘rinda Qur‘oni karim oyatlaridan, 7 ta o‘rinda hadisi shariflardan, 143 ta o‘rinda arab mumtoz she‘rlaridan va arab maqollaridan foydalangan. Darhaqiqat, musannif arab maqollaridan ko‘proq foydalangan nodir nahvshunoslaridan hisoblanadi. Asarda muallif arab mumtoz she‘rlari asosida qoidalarini dalillash va xulosalar chiqarish yoki inkor qilish usulini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, avval birinchi qismda keltirilgan mavzulardan boshlaymiz.

Mubtado xabar bobida muallif ot kesimli gapda mubtado yoki xabar turli xil sabablarga ko‘ra tushib qolishi mumkinligini ta‘kidlaydi. إما ان يكون المبتدأ محذوفاً أو يكون الخبر محذوفاً، مما حذف منه الخبر «Gapda yoki mubtado yoki xabar tushib qolishi mumkin, unda xabarning tushib qolishiga misol» deb, quyidagi she‘rni dalil o‘laroq keltiradi. She‘r umaviylar davrida yashagan G‘aylon bin Uqbagaga tegishli.

فيا ظبية الوعاء بين جلال



وبين النقا¹ أنت أم سالم

«Tog‘lar va qum tepaliklardagi ey ohu sen(ohu)misan yoki Ummu Salimmi».

Bu jumlaning tahlil qiladigan bo‘lsak undalmadan keyingi jumlada «sen» so‘zi muftado bo‘lib, uning xabari ظبية «ohu» so‘zi tushib qolgan. She’ning to‘liq ma’nosi: Sen ohumisan yoki Ummu Salim. Bu yerda oshiq ikki mavze orasidagi ohuni go‘zal ayolga o‘xshatyapti. Boshqa sharhda ohu so‘zi o‘rniga أجمل «chiroyliroq» so‘zini ishlatadi. Shunda tarjima quyidagicha bo‘ladi. Ey tog‘lar va qumtepaliklar orasidagi ohu sen chiroyliroqmi yoki Ummu Salim. Bu she’r xuddi shu qoidaga misol qilib Anbaryning «Insof» kitobida ham keltiriladi. Musannif tavil bahrida yozilgan she’r orqali jumlada xabarning tushib qolish hodisasini dalillaydi. Baytdagi bosh nuqtada turgan go‘zallik timsoli bo‘lgan ohuning zikri undalmadan keyin kelganligi sababidan keyingi jumlada takrorlanmagan. Bu she’riy baytlar xalq og‘zaki ijodida ko‘p ishlatilganligi va shoirlar tomonidan uzliksiz mutolaa qilinishi sababli ulardagi ma’no–mazmun va tarkiblari har bir o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan.

Keyingi she’riy bayt «tushim kelishigidagi ismlar» mavzusida باب المفعول المطلق «Mutlaq masdar bobi»da keltirilgan. Muallif mutlaq masdar turlarini zikr qilib, masdarlarning gaplarda turli xil holatda kelishini izohlaydi. و تنصب المصادر بأفعال مضمرة هي في ذلك على ثلاثة الأنواع: أحدها: ما يستعمل إظهار فعله و إضماره. و ثانيها ما لا يستعمل إظهار فعله و يلزم ثالثها: ما لا فعل له أصلا. «Masdarlar yashiringan fe’llar bilan tushim kelishigida bo‘ladi. Ular uch turdan iborat. 1. Masdarning fe’li ko‘rsatiladi yoki ko‘rsatilmaydi. 2. Masdarning fe’li ko‘rsatilmaydi, balki uni berkitish lozim bo‘ladi. 3. Unda umuman fe’l yo‘q, ishlatilmaydi. Olim ikkinchi qoidani dalillash uchun quyidagi she’riy baytni misol qilib keltiradi.

إني لأمنحك الصدود و إنني
قسما إليك مع الصدود أميل

«Darhaqiqat men sendan yuz o‘giryapman, qasamki, yuz o‘girishimga qaramasdan senga eng rag‘batliman»².

Bu she’r kamil bahrida yozilgan bo‘lib, umaviylar davrida yashagan Al-Ahvos laqabli Abdullah ibn Muhammadga tegishli. Bu she’rda shoir dushmanlar sababidan o‘z joyini tashlab ketayotgan insonning hasratini ifoda qilyapti. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy bu baytda ta’kidlovchi masdarning fe’li tushib qolishi mumkin bo‘lgan o‘rinda zikr qilgan. أقسم masdarining قسما «men qasam ichaman» fe’li tushirib qoldirilgan. Chunki gap boshida qasamga ishora qiluvchi ta’kid bor. «Sharhu-r-Rizo» kitobida ham xuddi shu bayt keltirilib, الكلام السابق الجملة في الكلام السابق, «qasam

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» qo‘lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 23-A.

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» qo‘lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 31-b.



so'zi avvalgi gapdagi jumlaning ma'nosini ta'kidlaydi» deydi.¹ Muallif qisqa uslubni ixtiyor qilganligi sababli bu baytda tafsilotlarga kirishmasdan faqat tushirib qoldirilgan fe'lni zikr qiladi.

«Tushim kelishigidagi ismlar» mavzusida shu uslubda keltirilgan yana bir she'rni uchratishimiz mumkin. Bunda ham fe'lning baytda tushib qolish hodisasini ifodalaydi. Muallif باب المفعول به «Vositasiz to'ldiruvchi» bobida shunday deydi. يجيء المفعول به منصوبا بفعل مضمر و هو على ضربين: أحدهما ما يستعمل إظهاره. الثاني ما لا يستعمل إظهاره. «Vositasiz to'ldiruvchi yashiringan fe'l bilan tushum kelishigida keladi va u ikki xil bo'ladi. 1. Fe'lni ko'rsatish joiz bo'ladi. 2. Fe'lni ko'rsatish joiz bo'lmaydi»². Musannif bu qoidaga ba'zi sharh va oddiy jummalarni misol qilib keltirgandan keyin bevosita she'rni keltiradi.

لن تراها و إن تأملت إلا
و لها في مفارق الرأس طيبا

«Tikilib qarashingga qaramasdan sen uni ko'ra olmassan, faqat undagi sochlarining ajralgan joyidagi xushbo'ylikni (ko'rasan)»³.

Bu she'r xafif vaznida yozilgan bo'lib, umaviylar davrida yashagan shoir Ubaydulloh ibn Qays al-Ruqayyatga tegishli (694-yil). Baytning umumiy ma'nosi «Sen o'sha ayolni ko'ra olmaysan, faqat sochidagi xushbo'ylikni his qilasan». Shoir birinchi baytda unga dalolat qiladigan fe'l bo'lganidan keyingi baytda o'timli fe'lni zikr qilmagan. Musannif aynan zikr qilinmagan ترى أو تبصر «ko'rmoq yoki his qilmoq» ma'nosidagi fe'lning tushib qoldirilishini qoidaga misol sifatida keltiradi. «sen his qilasan yoki ko'rasan» o'timli fe'lini jumlada keltiradigan bo'lsak, طيبا «xushbo'ylik» so'zi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib, fe'lga به المفعول به «vositasiz to'ldiruvchi» bo'ladi. Shunda she'rning lug'aviy tarjimasi «garchi tikilib qarasang ham, uni ko'ra olmassan, faqatgina undagi sochlarning ajralgan joyidagi xushbo'ylikni his qilasan». Musannif qoida sharhiga ko'p to'xtalmay, keyingi misollarga o'tadi.

Sibavayh shu baytni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiydan farqli ravishda boshqa mavzuda باب ما يحذف منه الفعل لكثرة «Ko'p ishlatilganidan fe'lning tushirib qoldirilishi» bobida zikr qilgan.⁴ الطيب إن الطيب دخل في الرؤية و أنه اشتمل على ما بعده في المعنى «xushbo'ylik so'zi ko'rishning tarkibiy qismi bo'lib, o'zidan oldingi so'zning ma'nosini qamrab olgan» deb, baytni sharhlaydi.

Arab tilida yirik mavzulardan hisoblangan «Qaratqich kelishigidagi ismlar» mavzusidan ba'zi she'riy baytlarni keltiramiz. باب الإضافة «Moslashmagan aniqlovchi bobi»da muallif izofaga bog'liq ko'plab qoida va sharhlarni keltirib, bobning yettinchi

¹ محمد بن الحسن الإستراباذي السمناني النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م. ص377.

² O'sha asar.33-b.

³ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 34-A.

⁴ أبو بشر سيبويه إمام النحاة. كتاب سيبويه في النحو. مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م. ص285.



قد يحذف مضاف «aniqlanmish»ning tushirib qoldirilish qoidasini bayon qiladi. «Ba'zida aniqlanmish tushib qoladi. المضاف و يقام المضاف إليه مقامه إذا لم يكن في الكلام التباس. Agar jumlada noaniqlik bo'lmaydigan bo'lsa, aniqlovchi uning o'rnini egallaydi». Musannif qoidani keltirib, to'g'ri she'riy baytni taqdim qiladi.

أكل امرئ تحسبين امرءا

¹ و نار توقد بالليل نارا

«Har bir erkakni erkak hisoblaysanmi va kechasi alangalangan (har bir) olovni olov hisoblaysanmi».

Bu she'riy bayt mutaqorib bahrida yozilgan bo'lib, johiliyat shoiri Abu Duaad al-Ayadhiy (480–545-y)ga tegishli. Baytda ayol tilidan boshqa bir ayolga xitob qilinyapti. She'ring umumiy ma'nosi quyidagicha: «Har bir ko'rgan erkakni komil erkak deb o'ylayverasanmi. Har bir alanga olgan narsani olov deb gumon qilaverasanmi». Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy bu bayt orqali izofa qoidasidagi muzofning tushib qolishi hodisasini dalillaydi. Ikkinchi jumlada كل «har bir» so'zi tushib qoldirilgan bo'lib, u gapda المضاف hisoblanadi. Muallif bu jumlagaga قرى «qishloqlar» so'zini izofa zanjiri ko'rinishida ham beradi. Shunda baytning lug'aviy ma'nosi; «Har bir erkakni erkak deb, kechasi alanga oladigan qishloqlarning har bir olovini olov deb hisoblayverasanmi». «Sharhi Ibn Aqiyl» kitobida ham bu bayt keltirilgan. Jumladan, Ibn Aqiyl bu bahsni quyidagicha tahlil qiladi. يحذف المضاف و يبقى المضاف إليه مجرورا بشرط أن يكون المحذوف مماثلا لما عليه قد عطف kelishigida bo'ladi. Sharti shuki; tushirib qoldirilgan muzof oldingi jumlada zikr qilingan muzofga o'xshash bo'lishi kerak². U ham baytdagi tushirib qoldirilgan muzofni كل «har bir» so'zi deb ta'kidlab, uning gapda to'ldiruvchi bo'lib ham kelganligini grammatik sharhlaydi.

Arab tilida barcha mavzularga bog'liq bo'lgan التوابع «Ergashuvchilar» mavzusi uchala kelishikda o'zidan oldingi so'zga moslashuvi sababidan juda ko'p ishlatiladi. Olim bu mavzuni yoritishda ham she'riy baytlardan uddaburonlik bilan foydalangan. Olim bu mavzuni yoritishda ham she'riy baytlardan uddaburonlik bilan foydalangan. التوابع «Ergashuvchilar» mavzusidagi باب الصفة «Sifat bobi»da quyidagi tushunchalarni keltiradi. تقع الجملة الخبرية صفة للنكرة «Ot kesimli gap noaniq ismga sifat bo'lib keladi»³. Musannif ikkita oyatdan keyin qoidaga quyidagi she'riy baytni keltiradi.

حتى إذا جن الظلام و اختلط

جاعوا بمذق هل رأيت الذئب قط

«Hatto kech botib qorong'i bo'lganida ular bo'rini ko'rdingmi? – Suv aralashgan sutni olib keldi».

¹ O'sha asar. 80A.

² القاضي بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمن ابن عقيل بتحقيق العلامة محمد محيي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك، مركز الرسالة للدراسات وتحقيق التراث، الجزء الثالث، صفحة 67.

³ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 88-b.



Bu she'r rajaz vaznida yozilgan bo'lib, muallif shoiring ismini keltirmagan. She'ring ma'nosi shuki, baxil qavm haqida bo'lib, ular kech qorong'isida mehmonlarga bo'rining rangiga o'xshab ketgan suv aralashgan sutni keltiradi¹. هل رأيت الذئب قط، جملة وقعت صفة لمذق و التقدير: جاؤوا بمذق مقول عند هذا القول، أي: يقال عنده: هل رأيت الذئب قط «Bo'rini ko'rdingmi iborasi suv aralashgan sut so'ziga sifat bo'ladi. Jumlaning asli; uning oldida bo'rini ko'rdingmi deb aytiladigan suv aralashgan sutni olib keldilar». Tugallangan ma'noni ifoda qiluvchi jumla qaratqich kelishigida turgan noaniq so'zga sifat bo'lyapti.

“Alfiya”ning sharhida ham bu she'r keltirilgan. Unda shoiring nomi Ujaj bin Ruba deb qayt qilingan. Sharhlovchi النعت «Sifat» mavzusida bu bayt orqali qoida va she'rni keng qamrovda tushuntiradi. هل رأيت الذئب نعتا للنكرة، أصل الكلام: جاؤوا بمذق مقول عند Bo'rini ko'rdingmi so'roq gap noaniq ismga sifat bo'ladi. Jumlaning asli: unga qaraganda, bo'rini ko'rdingmi deyiladigan suv aralashgan sutni keltirdilar². Tahlildan keyingi baytning lug'aviy ma'nosi: «Hatto kech botib qorong'u bo'lganida, unga qaraganda bo'rini ko'rdingmi? deyiladigan suv aralashgan sutni keltirdilar». “Alfiya” bilan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarlarida berilgan sharhlar bir-biriga o'xshash tarzda bayon etilgan. Biroq, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy qisqa uslub bilan ham baytni, ham qoidani sharhlagan. Zerikarli bo'lmasligi uchun tafsilotlarga ko'p kirishmagan.

Arab tilida ko'rsatish olmoshlari ko'rsatilgan shaxs yoki predmet bilan jinsda sonda kelishikda moslashadi. Shu sababdan bu olmoshlar nahv kitoblarida keng yoritiladi. Keyingi she'riy baytimiz mana shu mavzuda bo'lib, unda ko'rsatish olmoshi qoidasiga mos keladigan olmosh berilgan. أولى و أولاء بالمد و القصر لجمعهما «Ko'rsatish olmoshining ko'pligi bittasi alif bilan, bittasi alif maqsura bilan keladi».

نم المنازل بعد منزلة اللوى
و العيش بعد أولئك الأيام

«O'sha manzildan keyingi manzillarni va o'sha kunlardan keyingi hayotni mazammat qil».

Bu she'r kamil vaznida yozilgan bo'lib, umaviylar davrida yashagan hijo san'atida mashhur bo'lgan shoir Jarir bin Atiya (728–653)ga tegishli. She'ring ma'nosi: نم كل موضع تنزل فيه بعد هذا الموضع الذى لقيت فيه أنواع المسرة و نم أيام الحياة التى تقضيها بعد هذه الأيام التى Turli xil hursandchiliklarni ko'rgan bu manzilingdan keyingi istiqomat qilayotgan har bir manzilingni yomonla, baxt-saodatda o'tkazgan bu

¹ الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثانى، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 109.

² عبد الله بن يوسف بن أحمد ابن هشام، أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك، الجزء الثالث، المكتبة العصرية بيروت، 2008م، صفحة 310.



«Uning ustiga chang-to‘zonga to‘ldiradigan kuchli shamolning shabadasi teggan joyning izi hunarmandlar chizib to‘qigan bo‘yra kabi»¹.

Bu she‘riy bayt tovil vaznida yozilgan bo‘lib, johiliyat davrida yashagan iroqlik shoir Ziyad ibn Muaviyaga tegishli. Bu shoir she‘riy balog‘atda yetuk bo‘lganligi sababli “An-Nabig‘a” laqabini olgan.

Bu baytning ma‘nosi kitoblarda turli xil ko‘rinishda keladi. Shulardan biri «Kashshof» tafsirining sharhida juda mukammal tarzda berilgan. Jumladan, unda shunday deyiladi; «Bu baytdagi shamolni yerga sudralib yuradigan uzun etakli kiyim kiyib olgan ayollarga o‘xshatish mumkin»². Bu sharh asosida baytning ma‘nosi quyidagicha bo‘ladi. «Yerga sudralib yuradigan uzun etakli kiyim kiyib olgan ayollarning ko‘ylagi teggan joyning izi hunarmandlar chizib to‘qigan bo‘yra kabi». «Shavahid Mufasssal» kitobida quyidagi fikrni ilgari suradi; «شبه آثار جر الرياح بالخطوط في القضيض أو موضعها التي هبت عليه بالقضيض المنمق – زينته بالكتابة النساء الحائقات للكتابة. Shoir shamolning teggan joylarining izini bo‘yraning chiziqlariga yoki shamol ta‘sir qilgan o‘rmini mohir to‘quvchi ayollar yozish bilan ziynatlab nAQSHlagan bo‘yraga o‘xshatgan»³. Ikkita holatda ham ma‘no bir-birini inkor qilmaydi. Faqat birinchi sharhda shamolni ayolga o‘xshatishda birmuncha farqlanish bor.

Bu baytning grammatik xususiyati shundaki, unda birinchi baytda «o‘rin nomi» kelgan. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy اسم الزمان و المكان «o‘rin va payt nomlari» gapda biror-bir sintaktik vazifa bajarmasligini ta‘kidlaydi. Bunga baytdan misol keltirib, uni quyidagicha sharhlaydi; «فإنما نصب ذيولها ب(مجر): لأنه مصدر بمعنى الجر و التقدير: كأن أثر أو موضع so‘zi ta‘sirida «shabadalar» yoki “etaklar” so‘zi tushim kelishigida kelgan. Chunki «o‘rin nomi» so‘zi masdar “ish harakat” ma‘nosida. Baytning bu birikmadagi ma‘nosi bo‘ronli shamolning izi yoki teggan joyi shaklida bo‘ladi». Gapdagi «o‘rin nomi» ma‘nosida emas, balki masdar ma‘nosida kelib, gapda sintaktik vazifani bajaryapti. Chunki, agar «o‘rin nomi» ma‘nosida kelganda so‘zi tushum kelishigida bo‘lmasdi yoki jumlada kelmas edi. Baytda «o‘rin nomi» ma‘nosida emas, balki masdar ma‘nosida kelganligi xususida nahvshunoslar o‘rtasida ixtilof yo‘q, lekin baytning ma‘nosida ular o‘rtasida ma‘lum farqlanishlar bor.

Arab tilida shunday fe‘llar borki, ular ikki yoki undan ortiq so‘zlarni tushum kelishigida boshqaradi. Alloma mavzuga doir quyidagi baytni keltiradi.

أبالأراجيز يا ابن اللؤم توعدنى
و فى الأراجيز خلت اللؤم و الخور

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 166A.

² العلامة جاز الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشف عن حقائق غوامض التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأويل، الجزء الثالث، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 612، الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 354



«Shohsiz sigirlar kabi uchta oppoq ayollar eruvchi do'lga o'xshagan tishlari bilan kularlar»¹.

Ibn Yaish bu baytni lug'at jihatidan quyidagicha sharhlaydi; نعجة so'zi so'zining ko'pligi bo'lib, qo'ying urg'ochisiga nisbatan ishlatiladi. Arablar نعجة urg'ochi qo'y so'zi bilan ayollarga kinoya qiladi. جم so'zi shohsiz qo'ylar, برد so'zi do'l, منهم so'zi eruvchi ma'nosida ekanligini ta'kidlaydi.

Baytning umumiy ma'nosi quyidagicha kelgan; تبو أسنانهن عندما إنهن ثلاث نسوة ناعمات، Uchta quvnoq ayollar, ular kulganida tishlari eriyotgan do'l kabi ko'rinadi»². «Sharh-u Tasrih» kitobida ham bu bayt va unga bog'liq masalalar kelgan bo'lib, baytning lug'aviy ma'nosi Ibn Yaish keltirgan qarashlar bilan bir xil. Umumiy ma'no esa biroz farq qiladi; النسوة يضحكن عن أسنان مثل البرد الذائب لطافة و نظافة «Ayollar latofat va pokizaligidan eriyotgan do'lga o'xshagan tishlarini ko'rsatib kuladilar»³.

الذي كزید: الكاف معناه التشبيه نحو: Alloma grammatik qoidani quyidagicha taqdim qiladi: harfi o'xshatish ma'nosida bo'ladi. Masalan; sening akang Zayd kabidir. Shoirning baytida کاف harfi ism ma'nosida ishlatilgan. Baytda كالبرد so'zi oldidan kelgan کاف harfi ism bo'lib «o'xshagan-o'xshash» ma'nosida kelgan. shaklida izofa ko'rinishida bo'ladi. Baytdagi isbot dalil qoidani bitta so'zni almashtirish bilan ifoda qilib, u bilan baytning ma'nosini ham ochib bergan.

Bu fikrni Abdurahmon Jomiy ham ilgari surgan; مثل harfi «o'xshagan-o'xshash» ma'nosidagi ism bo'lishi mumkin deb, mazkur baytni keltirgan. Baytdagi birikmaning asl ko'rinishi البرد الذائب shaklida bo'lishi kerak. Bunda کاف harfi ochiq-oydin ism bilan xoslangan⁴. Baytdagi bu grammatik qoida juda muhim masala bo'lib, ikkita old ko'makchi ketma-ket bir so'z oldidan kelmasligiga va ba'zida old ko'makchi ism ma'nosida yoki boshqa ma'nolarda kelishini anglatadi.

کاف harfi bilan bog'liq bo'lgan boshqa mavzuda ham shunga o'xshash she'riy bayt keltiriladi.

نحر مشرق اللون

كان ثدياه حقان

«Porloq yuzli qizning ikki ko'kragi go'yoki ikki idish kabi»⁵.

Sibavayh نحر «bo'yin-ko'krakning yuqori qismi» so'zi o'miga «yuz» so'zini ishlatadi¹.

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozma nusxasi 10518-raqam-216A.

² العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بدیع يعقوب، دار الكتب العلمية بيروت، 2001م، الجزء الرابع، صفحة 502

³ خالد بن عبد الله بن أبي بكر بن محمد الجرجاوي الأزهرى تحقيق محمد باسل عيون السود شرح التصريح على التوضيح في النحو، دار الكتب العلمية، لبنان بيروت، صفحة 659. 2000م.

⁴ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 194

⁵ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozma nusxasi 10518-raqa, 223A.



Baytning ma'nosini Faxriddin Xorazmiy quyidagicha bayon qilgan: جعل النحر مشرقا: «Bo'yin qismini oqligi uchun yorqin deb atagan, ko'kragingning dumaloqligi va to'laligi uchun ikki ko'kragini ikkita idishga o'xshatgan»².

Jurjoniy bu baytni quyidagicha bayon qiladi; و ثدياه كالحقين في: «Rangi yarqiragan bo'yin sohibi uning ikkita ko'kragi dumaloqlikdan va kichkinaligidan ikkita idish kabi»³.

Alloma bu baytni quyidagi qoidani isbotlash uchun keltirgan; كان للتشبيه نحو: كان زيدا: الأسد؛ الأصل: إن زيدا كالأسد، فركبت الكاف مع (إن) و فتحت الهمزة، و تخفف أيضا فيبطل عملها. o'xshatish uchun ishlatiladi. Masalan: go'yoki Zayd arslon, aslida; Zayd arslon kabidir. harfi (إن) bilan birikib, hamza harfi fathaga o'zgaradi va keyingi harf ikkilantirmasdan o'qiladi. Bu holatda (إن) harfining keyingi so'zga ta'siri bo'lmaydi». She'rdagi كان ثدياه حقان bayti mazkur qoidaga guvoh sifatida kelgan. (إن) harfi sukun holatida bo'lganligi sababli o'zidan keyingi kelgan ثدياه so'zining tushum kelishigida kelishiga ta'sir qilmayapti.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy كان harfidan keyin fe'l kelishi mumkin deydi. Masalan: كان قد كان shaklida bo'ladi.

Jaloliddin Suyutiy o'z kitobida baytdagi grammatik tahlilga tortgan so'zni tushum kelishigida تشبيه shaklida bergan⁴. Anbariy «Insof» kitobida ham shu shaklda keltirgan⁵. Unda so'zining tushum kelishigida keltirganligining sababini lafzda كان harfi o'z vazifasini bajaradi deb tushuntiradi. Biroq, ba'zi nahvshunoslar كان harfidan keyin tushirib qoldirilgan olmoshni sabab qilib ko'rsatib, ثدياه so'zining bosh kelishikda kelishini bayon qiladi. Jaloliddin Suyutiy va Anbariy baytdagi so'zni tushum kelishigidagi shaklini keltirgan bo'lsa ham, ikkita holatni bayon qilib, bosh kelishikda kelishini ham inkor qilmagan. Zamaxshariy ثدياه so'zining bosh kelishik shaklini beradi⁶. Bunda Zamaxshariy va Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy qarashlari mutlaqo bir xilligi ko'rinadi.

Maqollar va hikmatlar grammatik masalalar yoritilishida Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflardan keyingi uchinchi yordamchi vosita bo'lib, musannif ulardan foydalanishda kamyob nahvshunoslardan hisoblanadi. Alloma ko'plab o'rinlarda bu qisqa

القاضي بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمان ابن عقيل بتحقيق العلامة محمد محيي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك، الجزء الأول، مركز الرسالة للدراسات وتحقيق التراث، صفحة 355

الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، الجزء الثاني، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 870.

علي بن محمد بن علي الحسيني الجرجاني يعرف بالسيد الشريف أو السيد السند شرح أبيات المفصل. المملكة العربية السعودية، صفحة 299

الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثاني، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 187

عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين والكوفيين. - القاهرة، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 197

أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار - الأردن. 2003. صفحة 304



iboralaridan unumli foydalanib, kitobning ahamiyatini va uning ko'p qirraligini oshirgan.

Birinchi maqolni muftado va xabar bobida uchramiz. Jumladan, unda shunday deydi. «Muftado aniq holatda bo'ladi, ba'zida noaniq holatda kelishi mumkin»¹. Bu qoidaga dalil sifatida quyidagi maqolni keltiradi. «Itni yomonlik vovullatadi». Alloma bu masalni quyidagicha sharhlaydi. «أحدهما: أن يكون شراً فاعلاً من المعنى على تقدير: ما أهر ذا ناب إلا شر. والثاني: أن يكون موصوفاً وصفته: شر أهر ذا ناب. «Bu masalning ma'nosida ikki xil qarash bor: birinchi, "itni yomonlikdan boshqa narsa vovullatmaydi" ma'nosida bo'lib, "yomonlik" so'zi ega bo'lib kelyapti. Ikkinchi, "itni qattiq yomonlik vovullatadi" ma'nosida bo'lib, "yomonlik" so'zi sifatlanmish hisoblanib, uning sifati "qattiq" so'zi bo'lib u gapda tushirib qoldirilgan». Bu masalda qoidaga muvofiq "yomonlik" so'zi noaniq holatda muftado bo'lib kelyapti. «Kofiya» kitobida ham bu masalga xuddi shunday munosabat bildirilgan. Faqat unda muftado "yomonlik" so'zi xoslash ma'nosida noaniq holatda kelgan bo'lib, uning sifati "qattiq" so'zi o'rniga "katta" so'zi ishlatilgan, shu jihati bilan farq qiladi.²

Keyingi maqolni izofa mavzusida muzofning tushib qolishi qoidasini yoritishda keltirgan. Alloma qoidani keltirib, undan keyin to'g'ri maqolni dalil sifatida taqdim qiladi. «Ba'zida aniqlanmish qat'iyatlar va agar jumladan noaniqlik bo'lmaydigan bo'lsa, aniqlovchi uning o'rnini egallaydi»³. «Har bir qora narsa xurmo emas va (har bir) oq narsa yog' emas». Muallif bu maqolda ikkinchi jumladan muzof aniqlanmish bo'lgan "har bir oq narsa" ma'nosida bo'lishini ta'kidlaydi. Ibn Yaish ham bu maqolda "har bir oq narsa" ma'nosida bo'lishini ta'kidlab, go'yoki sen uni gapda talaffuz qilgandek bo'lib, gapda "oq narsa" so'zi aniqlanmish, "har bir oq narsa" so'zi unga aniqlovchi bo'lib, u gapda tushib qolgan⁴.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy mavzuning ahamiyatiga qarab ba'zi fasllarda bir nechta maqollar keltirgan. Shunday mavzulardan biri «murakkab ismlar» murakkab ismlar bo'lib, alloma bu faslda oltita maqoldan foydalangan. «Murakkab ismlar» qisqa qilib ifodalash maqsadida ikki kalima orasidagi teng bog'lovchi "vov" harfi tushirib qoldirilib, bitta ma'nodagi so'z qilinadi va harf (yordamchi so'z) ma'nosida ham keladi. Maqollardan misollar: «Ular qiyin vaziyatga tushib qoldi»⁵. Alloma bu maqolning ma'nosini quyidagicha bayon qiladi: «أي: في فتنة» «O'z ahlini oqizib ketadigan fitna sinovga tushish» ma'nosida kelganligini

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam, 23B.

² العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 41

³ O'sha asar. 81a.

⁴ العلامة ابن يعيش شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية بيروت، 2001م، الجزء الثاني، صفحة 197.

⁵ O'sha asar. 122B.



avval murakkab bo'lmagan ot kesimli yoki fe'l kesimli gaplardan foydalangan. Qoidalarining ma'lum qismi oydinlashgandan keyin Qur'oni karim oyatlari misol sifatida keltirila boshlagan. Mavzuning boshqa murakkab yoki nozik taraflarini yoritishda she'riy baytlar va arab maqollaridan foydalangan. Olim she'riy baytlarni ko'pincha tilshunoslar orasida bahsli bo'lgan qoidalarni tushuntirishda keltirgan. Asarda umumiy uchta qismda 143 ta o'rinda arab mumtoz she'rlaridan va arab maqollaridan foydalangan.

Olim mavzularni yoritishda arab maqollaridan kam foydalangan bo'lsa ham, eng dolzarb va muhim bo'lgan o'rinlarda yuksak mahorat bilan qo'llagan. Maqolaning "Ism bobi"da ega va kesimning turli xil holatlarda tushib qolishi hamda moslashmagan aniqllovchilarning kelishiklari va oddiy darajadagi sifatlar, va orttirma darajadagi sifatlar, hattoki ko'rsatish olmoshlarining xususiyatlarini ochib berishda she'riy baytlardan foydalangan. "Fe'l bobi"da yordamchi fe'llar va gumonni ifoda qiluvchi fe'llarning gapda otlarni tushum kelishigida boshqarishiga doir masalalarni yoritishda she'riy baytlar o'z o'mida qo'llanilgan. "Old ko'makchilar" qismida, asosan, ko'makchilarning qaysi ma'noda kelishi she'riy baytlar asosida ochib berilgan. Maqollarga kelsak, ular murakkab gaplar mavzusida ko'proq qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, olim boshqa tilshunoslardan farqli ravishda barcha mavzularda she'riy baytlardan foydalangan. Ba'zida bitta she'riy bayt bilan ikkita yoki uchta qoida ochib berilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, ko'plab keltirilgan she'riy baytlarning aniqlanmagan noaniq jihatlarini boshqa iboralar qo'llash orqali tushuntirgan. She'rdagi qoidaga doir so'zlar ajratilib, grammatik tahlil qilinganligi o'quvchidagi tushunchani yanada orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdujabbor Qahhorov, Malika Nosirova. Gap sintaksisi arab tilshunoslari talqinida. Toshkent, 2013. 163-b.
2. Malika Nosirova. O'rta asr arab nahvidan namunalar. Toshkent, 2004. 71-b.
3. Qosimova S.S. Klassik arab nahvidan ma'lumotlar. Toshkent, 2011. 88-b.
4. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.
5. محمد بن الحسن الإستراباذي السمناي النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م. ص1222.
6. أبو بشر سيبويه إمام النحاة. كتاب سيبويه في النحو. مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م. ص439.
7. القاضي بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمان ابن عقيل بتحقيق العلامة محمد محيي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك، مركز الرسالة للدراسات وتحقيق التراث، صفحة 292.
8. عبد الله بن يوسف بن أحمد ابن هشام، أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك، الجزء الأول، المكتبة العصرية بيروت، 2008م، صفحة 384.
9. الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 607.
10. العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 217.



11. العلامة ابن يعيش شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية بيروت، 2001م، الجزء الثاني، صفحة 462.
12. العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشف عن حقائق غوامض التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأويل، الجزء الثالث، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 626.
13. صدر الأفاضل القاسم بن حسين خوارزمي، تحقيق الدكتور عبد الرحمان بن سليمان العثيمين، شرح المفصل في صناعة الإعراب بالتخمين، الجزء الثالث، دار الغرب الإسلامي، بيروت بلبنان، 1990م، صفحة 358.
14. علي بن محمد بن علي الحسيني الجرجاني يعرف بالسيد الشريف أو السيد السند شرح أبيات المفصل. المملكة العربية السعودية، صفحة 346.
15. خالد بن عبد الله بن أبي بكر بن محمد الجرجاوي الأزهرى تحقيق محمد باسل عيون السود شرح التصريح على التوضيح في النحو، دار الكتب العلمية، لبنان بيروت، صفحة 744. 2000م.
16. الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثاني، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 289.
17. عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. -القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 880
18. أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دارعمار -الأردن. 2003. صفحة 565

UMIDBEK SAIDOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar

Annotatsiya. Hozirgi kunda kognitiv tadqiqotlar gumanitar fanlarning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Sensorik signallardagi ma'lumotlarning transformatsiyasi (qayta shakllanishi) natijasida inson tafakkurida kechadigan turli: psixik, mantiqiy, evristik, perseptiv jarayonlar olimlarning diqqat markazida. Shunga ham qaramasdan tarjimashunoslik sohasida asliyat matnidagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamlari tarjimada aks etishi bilan bog'liq tadqiqotlarda sustkashlik bor. Kognitiv tahlil asli tilshunoslik mahsuli bo'lgani sabab, bu metodni tarjimashunoslikdagi masalalarni hal qilish uchun badiiy matnga nisbatan qo'llash yangicha yondashuv hisoblanadi.

Har qanday badiiy matn kommunikativ maqsadni ko'zlashi sir emas. Bunday maqsad asliyat matnida ham, tarjima matnida ham mavjud. Asliyat matnidagi kommunikativ maqsad tarjima matnida saqlab qolinganmi yoki yo'q degan masala, ayni tarjimashunoslik doirasidagi masalalardan biri. Bunday masalaga javob topish uchun asliyat matnini chuqur tahlil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun esa, badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konsept nima ekanligi bilish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Asosiysi esa, badiiy konsept lingvomadaniy konseptdan qanday farqlanishining tamoyillarini bilish kerak degani.

Ushbu maqolada XXI asrdan boshlab filologik yo'nalishlarda, xususan tilshunoslik sohasida aktual bo'lib kelayotgan badiiy matnning kognitiv tahlil metodi va badiiy matndagi